



## SAKSOVUL O'SIMLIGI ZARARKUNANDASI HAQIDA

**Xasanov Jamshid Davletbayevich**  
O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktorant.

**Jumamuratov Ulug'bek G'aniybay og'li**  
O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali katta ilmiy xodimi

**Annotasiya:** Saksovul o'simligi zararkunandasiga qarshi kurashish hamda uning rivojlanishi va tarqalishi haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Saksovul o'simligi zararkunandasiga, morfologiyasi, hayot keshirishi, zarari va qarshi kurash choralari haqida.

Saksovul (*Haloxylon*) — sho'radoshlar oilasiga mansub buta va daraxtlar turkumi.

Bo'yisi 1,5–12 m, [tanasining](#) diametri 1 m gacha boradi. [Guli](#) mayda, ikki jinsli, qaramaqarshi, tangachasimon, guloldi qo'lting'ida bittadan o'rnashgan. [Barglari](#) uchli, rivojlanmagan, tangachasimon, gul xreil qiluvchi novdachalari qari shoxlardan o'sib chiqadi. Saksovulning yashil novdalari organik modsa to'plashga xizmat qiladi. Iillik yosh novdalarining ko'p qismi kuzda, ayniqsa, sovuq tushishi bilan to'kilib ketadi, ozroq qismi esa yog'ochga aylanib saqlanib qoladi. [O'zbekistonning](#) cho'llarida o'rmonlarni hosil qiluvchi asosiy turlar — oq va qora Saksovuldир. Kora S. (*H. aphyllum*) — bargsiz buta yoki daraxt, bal. 4—9 (12)m gacha. Asosan, Osiyoning [cho'l](#) va [chala](#) cho'llarida, sho'rxok yerlarda, sho'rangan qumlarda, taqirlarda ko'p tarqalgan. Urug'idan ko'payadi. Qora S. katta daraxtzorlar hosil qiladi, oq Saksovuldan tana va shoxshabbasining qoramtil bo'lishi, bargining tuzilishi bilan ajralib turadi. Oq S. (*H. persicum*) — yirik buta. Bal. 2,5–6 m. Ildizi 10–11 m chuqurlikka boradi. Oq Saksovul qumliklarni mustahkamlash uchun ekiladi. Zaysan Si (*H. ammodendron*) turi [Qoraqalpog'istonning](#) [Ustyurt](#) tekisligi va Janubiy orolbo'yi hududlarida ko'b tarqalgan va hozirgi kundaxam ekilib kelmoqda.



Katta saksovul bukrisi (*Dericorys albidula* Serv.) ; Monofag hasharot – faqat saksovul va shu kabi cho‘lda o‘suvchi butalar barglari bilan oziqlanadi, qishloq xo‘jalik ekinlari uchun bezarar.



### **Katta saksovul bukrisi (*Dericorys albidula* Serv.)**

Dunyoda katta saksovul bukrisi chigirtkaisning tarqalgan xududlari O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Afg‘oniston, Eron, Shimoliy Afrika davlatlari Katta saksovul bukrisi chigirtkasining O‘zbekistonda tarqalgan xududlari Shimolda Qoraqum va Qizilqum (Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Buxoro, Navoiy viloyatlari) oralig‘idagi saksovulzorlarda keng tarqalgan. Janubiy viloyatlarning Surxon-Sherobod va Qarshi cho‘llarida mavjud bo‘lgan saksovulzorlarda ham tarqalgan.

Tuxum ko‘zachalari Tuxum ko‘zachalarini saksovulzorlarda chorva mollari yurgan nisbatan qattiq yerlarga qo‘yib ketadi.

Ko‘zachasi pishiq devorli bo‘lib, ko‘rinishi juda cho‘ziq, salgina buzik, pastki qismi biroz yo‘g‘onlashgan. Ko‘zachaning uzunligi 41 – 45 mm. Xar bir ko‘zachaga 18 -28 tadan tuxum qo‘yadi. Tuxum uzunligi 6,8 – 7,5 mm. Tuxumi rangi nim pushti yoki sarg‘ish tusda.



### Tuxum ko'zachalari

**Fenologiyasi;** Nimfalarining tuxumdan chiqishi:

Qarshi cho'lida Aprel oyining oxirlarida ro'y beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida May oyining o'rtalarida.


Nimfalarining yashash davri 45-50 kun. Shu muddat ichida ular 5 marta po'st tashlaydi.

Imagolarining paydo bo'lishi Iyun oyining boshi va o'rtalarida ro'y beradi.

Tuxum qo'yishi Iyul oyida boshlanib Avgustgacha davom etadi.

**Morfologik belgilari;** Kattaligi: Urg'ochisi – 5,0 – 5,6 sm, erkagi 4,8-5,3 sm, Rangi: och sariq rangda, qanotida qoramtil dog'lar bor qanotining ustgi qismida qo'ng'ir dog'lari bor, ko'kragining yuqori qismida bukri bor, ko'kragi ostki tomonida pixsimon do'ngcha joylashgan.

**Qarshi kurash:** Respublikamizda chigirkalarga qarshi kurashda foydalanish uchun 80 dan ortiq insektitsidlar ro'yxatga kiritilgan.





## Foydalangan adabiyotlar.

1. O'zbekistonda tarqalgan zararli chigirtkalar va temirchaklar hamda ularga qarchi kurach bo'yicha ilmiy-uslubiy qo'llanmasi. N.X.Tufliyev, F.A.Gapparov, A.F.Haytmuratov, B.R.Eshchanov, I.X.Hamroev

